



MUSIQA TA’LIMI YO’NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHGA INNAVATSION YONDASHUV

Muallif: Bobokulova Mohinur Jamshid qizi ¹

Affilyatsiya: Navoiy davlat universiteti musiqa ta’limi yo’nalishi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14465561>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqa ta’limi yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishga innovatsion yondashuv borasidagi fikrlar muhokama etilgan.

Kalit so’zlar: musiqa, musiqiy ta’lim, tahlil, talaba, o’qitsh, didaktika, yondashuv, innovatsiya.

Insonning qalbi ruhiy dunyosi tafakkuri uning kamolotini yuksaltirishda musiqaning o’rni beqiyos. Har tomonlama rivojlangan jismonan va aqlan yetuk shaxsni tarbiyalash bugungi globallashuv jarayonida o’ta dolzarb masalalardan hisoblanadi. Musiqa ta’limida tahsil olayotgan har bir talabaning mustaqil ravishda, yangi innovatsiyalar bilan birgalikda ta’limini yuksaltirish o’ta muhim masaladir. Yillar osha insonlarning tafakkuri va ularning fikr doiralari kengayganligi, dunyoqarashlarida zamonga mos o’zgarishlar ijobiy tomonga o’zgariganligini inobatga olgan holda, musiqa va uni o’rganishda zamonaviy metodlardan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda.

Butun jahon, ilmiy tadqiqot markazlarida musiqa ta’limini tashkillashtirishga innovatsion yondashuv masalasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Xitoyning Shangrao Universitetida “Innovative teaching approaches and student motivation in music education” bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

So’nggi yillarda mustaqil ta’limga innovatsion yondashuvning rivoji uchun yurtimizda qator yangiliklar va qulayliklar yaratilmoqda. Talabalarning darsdan tashqari o’qib o’rganishlari uchun 24/7 kutubxonalar tashkil etildi. Internetdan to’g’ri va maqsadli yo’lda foydalanishlari uchun juda ko’p qulayliklar yaratildi. Tabiiyki bu yo’l bilan talaba yoshlarni mustaqil ravishda o’z o’zini ilm-fan rivoji uchun band qilish va yangi tadqiqotlar ustida izlanishlar sonini oshishiga erishilmoqda.

Garchi mazkur sohada bir qancha istiqbolli islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan, yurtimizda bu sohani yanada rivojlantirishda turli xil muommolar ham mavjud. Masalan, musiqa yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun, o’quv binosida qo’shimcha qulayliklarga ega bo’lgan xonalar va cholg’u asboblarning sonining ba’zi o’quv dargohlarida yetarli emasligi. Talabalar bilan mashhur musiqashunos olimlarning uchrashuv kechalarini tez tez tashkillashtirish kerakligi. Iqtidorli talabalarni saralab olgan holatda chet el kompozitor va musiqashunoslarining konsertlariga yuborish ularning metodlarini ko’rib tahlil qilishlariga sharoitlar yaratilishi, shuningdek, ko’pgina

talabalarning mustaqil o'qish qobiliyatining pastligi, hamda so'nggi yillardagi mustaqil ta'lim usullarini tushunmasliklari bu sohaning muammolaridir.

Musiqa ta'limida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta'limini innavatsion tashkil etish, ularning ijodiy va kasbiy mahoratlarini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Talabaga mustaqil ish qilishida ko'makchi bo'ladigan ustoz unga vazifa va topshiriqlar berishidan tashqari yo'nalishini to'g'ri tanlashi kerak. Shundagina talaba mustaqil ishni bajarishda qiyinchiliklarga uchramaydi.

Institutlarda mustaqil ta'limni rivojlantirishning asosiy maqsadi, talabani o'z o'zini boshqarish qobiliyatini tashkillashtirish tengdoshlari bilan hamkorlikda yangi g'oyalarni kashf etishlari kelajakda kasbini yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlaridir. Bundan tashqari, har semestr yakunida o'tilgan fanni qay darajada o'rganilganligi talabaning mustaqil ishlari orqali baholanadi. Tabiiyki, bu jarayonda o'qituvchi talabaning mustaqil olib borgan ishiga ijodiy yondashishini, doimiy ravishda oshib borishini, hamda tanlangan mustaqil ishlarga amaliy tajribalar va ilmiy tadqiqotning umumiy elementlarini qo'shib borishi kerakligini o'rgatishi lozim. Bunda eng muhim jihat shundaki, talabaning mustaqil bilim olishiga e'tiborni kuchaytirish hisoblanadi. O'qituvchi doimiy mustaqil ishlarni boshqarishi, uni tashkillashtirishda o'zboshimchiliklarga yo'l qo'ymasligi, belgilangan nazorat tizmini amalda qo'llashi, talabalarga ta'limning barcha bosqichlarida yordam berishi kerak.

Musiqa ta'limida mustaqil ta'limni rivojlantirishning samarali usullariga konstruktiv va iskala asosidagi ta'lim, heutagogik yondashuvlar, ijodiy va tanqidiy fikrlash faoliyati, talabalarning avtonomiyasini rag'batlantirish, hamda tajribaviy va ijtimoiy o'rganishni rag'batlantiradigan amaliy qo'llanmalar kiradi. Bu ko'rsatma va qo'llanmalar mustaqil ta'lim olishda talabaning ta'lim jarayonini tekshirish, ya'ni o'zining zaif yoki iqtidorli tomonlarini ko'rishni, maqsadlarini aniqlashni, hamkor tomonlar bilan ishlashni, yangiliklar yaratishni o'rgatadi. O'z o'rnida, mustaqil ta'limning asosiy komponentlari quyidagilarni tashkil etadi:

1. Tajriba va so'rovga asoslanga ta'lim. Bunda, o'qituvchilar malakasini oshirish, tajribalar o'rganish, talabalarning kasbiy sifatlarini oshirish kabilar kiradi.

2. Ijodiy va tuzilgan mustaqil ish. Musiqa o'quvchilarining mustaqil ishida mustaqillik va ijodiy yetuklikni rivijlantirish. Bunda, musiqiy asarlarining badiiy tahliliga e'tibor qaratiladi.

3. Konteks va professional integratsia: asosan ta'limdagi faoliyatni professional faoliyatga aylantirish. talabalarni turli xil musiqiy ansambllar hamda professional ta'limga jalb etish. Bunda professional integratsialashgan shaxsni rivojlantirish asosiy qoida hisoblanadi.

4. Masofaviy ta'lim va o'z o'zini tashkil etish. Bunda, o'zini o'zi tarbiyalash tartibga solish hamda o'zini boshqarish nazorat qilish yetakchi o'rinda turadi.

5. Jamg'arma sifatidagi hamkorlikdagi tadqiqotlar. Hamkorlikdagi tadqiqotlar kelajakdagi shaxsiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirib beradi, keyingi tadqiqot ishlariga ishonch va tayyorgarlik hissini oshirib beradi.

Musiqa talabalari uchun yuqorida sanab o'tilgan mustaqil ta'lim olishdagi yo'l yo'riq va ko'rsatmalar ularning mustaqil ish qilishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa san'ati va uni o'rganish, musiqa san'ati yo'nalishi talabalarining birinchi o'rindagi vazifalari hisoblanadi. Musiqamizni jahon miqyosida tanitish uni o'rganish,

san'atimizga go'zallik va nafosat urug'larini ekish yoshlarimiz qo'lida. Shunday ekan, zamon bilan hamnafas holda, innavatsion metodlar yordamida, darsdan tashqari mustaqil ravishda o'z ustida ko'proq ishlashlari, jahon va milliy musiqamizga nazar solgan holatda dunyoni lol qoldiradigan darajada yangiliklar yaratish, albatta hozirgi yoshlarimizning eng asosiy vazifalari bo'lib hisoblanishi kerak.

Institutlarda talaba va ustoz o'rtasidagi hamkorliklarni kuchaytirib, talabalarning badiiy va ijodiy san'atlarini rivojlanishi uchun shart va sharoitlar yaratib berilgan. Albatta, bunday sharoitlardan talabalar to'laqonli ravishda foydalanishlari va kelajaklari uchun katta qadam qo'yishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Sukmayad Yu., Sella F., Hi Midyanti. "Ta'lim va fan jurnali", 2022 yil 14- iyun
Li. Cheng, Paulina. "Britaniya musiqa ta'lim jurnali". 2022 yil.
Sharipova G. M. "Musiqa metodikasi". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012 yil.

